

MADANIYATGA XOS SO‘ZLARNING TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MUAMMOSI

Xabibullayeva Zarina

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

zarinaxabibullayeva85@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan, lekin boshqa tillarga tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar va tushunchalar tahlil qilinadi hamda ekvivalent topish muammolari va ijodiy yondashuv zarurati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ekvivalent, tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar, noekvivalentlik, parafraz, o‘xshash madaniy atama, qarzga olingan so‘zlar.

Bugungi kunda xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar, xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi mislsiz darajada kuchaydi. Bunday sharoitda tarjima jarayoni tillararo muloqotning eng muhim vositasiga aylanadi. Roman Jakobson ta’kidlaganidek, tillar bir-biridan nimani ifodalashi mumkinligida emas, balki nimani ifodalashi shartligida farq qiladi, bu esa ayrim madaniy birliklarni boshqa tilda to‘liq aks ettirishni imkonsiz holga keltiradi. Shu sababli “tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar” masalasi zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb mavzularidan biriga aylandi.

Har bir xalq tilida o‘ziga xos’ boshqa tilda aynan ifodasini topish qiyin bo‘lgan leksik birliklar va tushunchalar insoniyat tafakkurining boyligi hamda madaniy xilma-xilligini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek xalqining “*palov*” so‘zi o‘zgarmagan holda ishlatiladi va u milliy taom – guruch, sabzi, go‘sht va ziravorlardan tayyorlanadigan mazali ovqat nomiga nisbatan ishlatiladi. Xuddi shuningdek, yaponlarning “*sushi*” so‘zi sirkaning ishtirokida tayyorlanadigan dengiz mahsulotli guruchli taomni bildiradi. Bu kabi so‘zlarni tarjima qilish jarayonida oddiy so‘z o‘zgartirish yetarli bo‘lmay, tarjimon madaniy kontekstni ham tushinishi zarur bo‘ladi.

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniy tafakkurini, qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Har bir tilda shunday so‘z va iboralar borki, ular boshqa tillarda aynan ekvivalentga ega emas. Tarjimashunos Mona Beykerning takidlashicha, har bir tilda shunday madaniyatga xos so‘zlar borki, ularning aniq tarjimasini yo‘q. Tarjimon bu hollarda **parafraz, o‘xshash madaniy atama yoki qarzga olingan so‘z** kabi usullardan foydalanadi. Bunday so‘zlar to‘siq emas, balki ijodiy yechim topish imkonidir [1].

Ko‘pchilik tarjimonlar o‘z ishini kasb deb hisoblashni afzal ko‘radi va boshqalar ham ularni malakali yoki yarim malakali ishchilar sifatida emas, balki haqiqiy mutaxassislar sifatida e’tirof etishlarini istaydi. Ammo bunga erishish uchun tarjimonlar o‘z faoliyatlariga tanqidiy nazar bilan qarash, ya’ni nima qilayotganliklarini anglash qobiliyatini rivojlantirishlari zarur. Shifokorlar yoki muhandislar singari, ular ham o‘zlariga va boshqalarga o‘z ishlarini ongli ravishda

boshqarayotganliklarini, tarjimani shunchaki tabiiy iste'dod tufayli emas, balki kasbiy bilim va ongli mehnat orqali yaxshi bajarishlarini isbotlab berishlari kerak [3].

Manba tilidagi so'z tarjima qilish maqsad qilingan til madaniyatida mutlaqo noma'lum bo'lgan tushunchani ifodalashi mumkin[2].

Tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar - har bir madaniyatning dunyoni idrok etish usulidir. Bunday so'zlarni o'rganish inson tafakkurining xilma-xilligini va tillarning madaniy boyligini anglashga yordam beradi.

Bir tilde aytish mumkin bo'lgan har bir narsani boshqa tilda ham aytib bo'lmaydi va bu faqat ayrim narsalarni bir tilda boshqasiga qaraganda osonroq ifodalash masalasi emas[3].

Quyidagi jadvalda turli tillardagi tarjima qilinmaydigan so'zlar namunasini ko'rish mumkin:

1-jadval

So'z	Madaniy kelib chiqishi	Ma'nosi
Pizza	Italiya	Yupqa xamir ustiga pomidor sousi pishloq va turli masalliqlar solinadigan italyan taomi
Pasta	Italiya	Bug'doy unidan tayyorlanadigan italyan makaron taomi
Kebab	Arab/Turkiya	Ko'mirda pishirilgan go'sht yoki boshqa mahsulotlardan tayyorlangan taom
Croissant	Fransiya	Yarim oy shaklidagi, qatlamli yog'li non
Burger	AQSh	Qovurilgan go'sht bo'lagi va boshqa mahsulotlar bilan tayyorlanadigan sendvich
Hot dog	AQSh	Uzun bug'doy non ichida kolbasa bilan tez tayyorlanadigan taom
Taco	Meksika	Kukuruz yoki bug'doy tortillasi ichida turli masalliqlar solingan taom
Espresso	Italiya	Qalin, kuchli qahva turi
Email	Jahon bo'ylab	Elektron pochta

Kimono	Yaponiya	Yapon kiyimi
Somsa	O'zbekiston/Markaziy Osiyo	Pishirilgan go'shtli taom
Choyxona	Markaziy Osiyo	Choy ichish va suhbatlashish uchun joy
Do'ppi	O'zbekiston	Ayollar kiyadigan milliy bosh kiyim
So'ri	O'zbekiston	Yog'ochdan yasalgan baland supa

Til va tarjima insoniyat tafakkurining eng nozik ko'rinishlaridan biridir. Har bir til o'zida betakror ma'no, hissiyot va madaniy merosni yashiradi. Tarjima jarayoni esa bu boyliklarni bir dunyodan boshqasiga ko'chirish, xalqlar o'rtasida ko'prik yaratish san'atidir. Shu bois har bir so'z, har bir ifoda - inson ruhining o'ziga xos ovozidir. Ushbu mavzuning ahamiyati shundaki, u tarjimonning nafaqat til bilimini, balki madaniy sezgirligini, ijodiy yondashuvini ham talab etadi. Tarjima qilib bo'lmaydigan birliklarni o'rganish orqali biz tillar o'rtasidagi farqlarni emas, balki ular orqali ifodalangan madaniy tafakkur rang-barangligini anglaymiz.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR

1. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. pp. 3-4. Routledge.
2. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation* p. 18. Routledge.
3. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford University Press. p. 4.